

**"BIRINCHI MUALLIM" QISSASIDA TARBIYAVIY-AXLOQIY
QARASHLAR**

MAXMUDOVA NODIRA ALISHEROVNA

Namangan davlat pedagogika instituti,

Maktabgacha ta 'lim metodikasi kafedrasi katta o 'qituvchisi (PhD)

E-mail:nodiramaxmudova9@gmail.com.Tel:+99899 789 40 17

Namangan davlat pedagogika instituti

Boshlang 'ich ta 'lim yo 'nalishi 3-bosqich talabasi

Xabibullayeva Madina G'aybullo qizi

Xabibullayeva0804@gmail.com Tel:+99893-142-03-85

Annotation: ushbu maqolada buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatovning “Birinchi muallim” asaridagi tarbiyaviy-axloqiy qarashlarga doir fikr-mulohazalar aks etgan.Asrani aks ettirgan tarovati, muallifni kechinmalari haqida bayon etilgan. Zotan, bu maqoladan so‘ng kitobxonlarda bu kitobni o‘qishga bo‘lgan qiziqishi ortsa, biz o‘zimizni baxtiyor his qilar edik.

Kalit so‘zlar: ta’lim-tarbiya, ma’naviy-axloqiy sifatlar, muallim, ijobiy fazilatlar.

**ВОСПИТАТЕЛЬНО-НРАВСТВЕННЫЕ СООБРАЖЕНИЯ В ПОВЕСТИ
«ПЕРВЫЙ УЧИТЕЛЬ».**

МАКМХУДОВА НАДИРА АЛИШЕРОВНА

Наманганский государственный педагогический институт, старший преподаватель (кандидат педагогических наук) кафедры методики дошкольного образования

Электронная почта: nodiramaxmudova9@gmail.com Тел.: +99899 789 40 17.

Наманганский государственный педагогический институт, начальное образование, Начальное образование студентка 3 ступени Хабибуллаева

Мадина Гайбулло девочка Хабибуллаева Мадина Гайбулло девочка

Хабибуллаева 080

Annotation: в данной статье отражены взгляды великого писателя Чингиза Айтматова на воспитательные и нравственные взгляды в произведении «Первый учитель». После этой статьи мы будем рады, если интерес читателей к чтению этой книги возрастет.

Ключевые слова: образование, духовно-нравственные качества, педагог, положительные качества.

EDUCATIONAL AND MORAL CONSIDERATIONS IN THE STORY "THE FIRST TEACHER".

MAKMHUDOVA NADIRA ALISHEROVNA

Namangan State Pedagogical Institute, senior teacher (PhD) of the Department of Preschool Education Methodology

E-mail: nodiramaxmudova9@gmail.com. Tel: +99899 789 40 17

Namangan State Pedagogical Institute, primary education, 3rd grade student

Khabibullayeva Madina Gaybullo girl

Khabibullayeva0804@gmail.com Tel: +99893-142-03-85

Annotation: this article reflects the views of the great writer Chingiz Aitmatov on educational and moral views in the work "The First Teacher". After this article, we would feel happy if the interest of readers to read this book increased.

Key words: education, spiritual and moral qualities, teacher, positive qualities.

Yurtimizda Chingiz Aytmatov hayoti va ijodini har tomonlama chuqur o‘rganish masalasi ham adabiyotshunos olimlarimizning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. O‘tgan davr mobaynida bu borada jiddiy ilmiy izlanishlar olib borilgani, yirik monografiya va tadqiqotlar e’lon qilingani O‘zbekistonda o‘ziga xos “aytmatovshunoslik maktabi” shakllanganidan dalolat beradi”[\[1\]](#). Shavkat Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.

XX asrning eng buyuk donishmandlaridan biri, betakror adib, jamoat va davlat arbobi, diplomat Chingiz Aytmatovga bag‘ishlangan yodnomalar nashrdan chiqdi. Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil 2 aprelda qabul qilingan “Buyuk adib va jamoat arbobi Chingiz Aytmatov tavalludining 90 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorida ta’kidlanganidek, “Chingiz Aytmatov nafaqat qirg‘iz eli, ayni paytda, butun turkiy mamlakatlar, jumladan, o‘zbek xalqi uchun ham aziz va qadrli siymo, O‘zbekistonning ulkan do‘sti edi”.

Insoniyat ma’naviy-axloqiy tanazzul yoqasida turibdi. Kishilik tarixi tadrijiy taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan qadriyatlar o‘z mohiyatini yo‘qotmoqda. Xalqlar, millatlar o‘zligidan uzoqlashmoqda. Zamonaviy sivilizatsiya insoniyat tafakkurini tubdan o‘zgartirib yubordi. “Dunyoga bir marta keldim. Ko‘nglim tusaganicha yashashim kerak” qabilidagi qarashlar odamlar ongida chuqur o‘rnashmoqda. Natijada ming yillar mobaynida hayot sinovlaridan o‘tgan, odam va olam xaloskorli sifatida o‘zini namoyon etgan, kishilik hayotini mazmun bilan boyitgan azaliy qadriyatlar o‘z qiyimatini yo‘qotmoqda. Axloqsizlik, ma’naviy qashshoqlik, bugun uchun yashash kayfiyati insoniyat taraqqiyotiga katta zarba bermoqda. Uning istiqboliga tahdid

qilmoqda. Amerikalik mashhur sotsiolog Patrik Bъyukenen “G‘arbning halokati” (“The Death of the West”) kitobida bu haqda batafsil to‘xtalgan. Yevropa sivilizatsiyasi inqirozining asosiy sababi axloqsizlik, ma’naviy qashshoqlik ekanini katta iztirob bilan bayon etadi. Uning xulosalariga ko‘ra, Yevropada aholi o‘sishi keskin kamaymoqda Qizlar ona bo‘lishni., yigitlar ota bo‘lishni istamayapti. Ular ongida oila tushunchasi yo‘qolib bormoqda. P.Byukenenning yozishicha, butun Yevropa qariyalar uyiga aylangan. Beshik yasaydigan ustalardan ko‘ra, tobut yasaydiganlarning bozori chaqqon. Bu — umummilliy inqirozning o‘zginasi

Mashhur siyosatshunos Genri Kissenjer: “Bizda erkak bilan ayolning shunchaki birgalikda yashash istagi mavjud. Sharqda oila degan muqaddas tushuncha bor. Bizda erkak bilan ayolning bir-biriga ehtiyoji bor. Sharqda muhabbat bor”, degan edi. Afsuski, bu yoqimsiz, izg‘irinli shabada Osiyoda ham esmoqda. Yoshlar turmush tarzi, hayotiy ehtiyojlari va aqidalari muayyan darajada o‘zgarib bormoqda. Bunday umumplanetar muammo, umumsayyoraviy tanazzul atoqli adib Chingiz Aytmatov asarlarida aks etdi. Yozuvchining butun ijodi, aytish mumkinki, inson va insoniyat, odamva olamning buguni va istiqboli bilan bog’liq g’oyat dardchil, iztirobli badiiy tafakkurning betimsol hodisaside.

Chingiz Aytmatov hozirgi ma’naviy-axloqiy jarayonlarni talqin qilar ekan, o‘tmish — bugun — kelajak uzviyligini va uning qiyosiy tahlilini, falsafiy va mantiqiy mohiyatini betakror badiiy uslubda ifoda etadi. Yozuvchi davr psixologiyasini, ijtimoiy hayot mohiyatini insoniyat kechinmalari, qalb manzaralari va ruhiy olami orqali ochib beradi. Hozirgi zamon insoniyat ruhiyatini, uning hayotiy ehtiyojlarini bir necha ming yillik qadriyatlardan uzoqlashgan va yengiltak hayot ishqibozligiga aylangan fojiali hodisa sifatida tushunadi. Har bir qahramoni va personaji so‘zlarida, o‘zaro munosabatlarida, to‘qnashuvlari va kechinmalarida bitta shaxs o‘ylari orqali umuminsoniy muammo ochib beriladi. Zotan, Ch.Aytmatov uchun butun insoniyat — bitta odam. Butun Yer shari — hammaning najot maydoni. Adib zamonaviy kishilik jamiyatining ma’naviyatdan uzoqlashayotganiga, axloqsiz turmush tarzi tobora chuqurlashib borayotganiga qarshi isyon qiladi. Ushbu kechinmalar turli shakllarda, turli holatlarda, bir-biriga o‘xshamagan qahramonlar kechinmalarida ifodasini topgan. Biroq ularning mohiyati bitta — umumsayyoraviy insoniyat inqirozi. Jumladan, “Kassandra tamg‘asi” romani shakli, uslubi, muallifning yondashish usuli jihatidan jahon adabiyotida butunlay yangi hodisa edi. Hali odam shakliga kirmagan murtak-embriionning butun insoniyat global gunohlari, shafqatsizlik, bedodlik, xiyonat, zo‘ravonlik olamidan yuz o‘girishi va bunday erkin hayotga kelishdan voz kechishi insonga va insoniyatga qarshi o‘ziga xos isyon edi.

Chingiz Aytmatovning "Birinchi muallim" qissasi o‘zining ma’naviy va axloqiy jihatlari bilan alohida e’tiborni tortadi. Ushbu asar nafaqat O‘rta Osiyo qishloq hayoti, balki tarbiyaviy qadriyatlар, axloqiy masalalar va insoniy munosabatlar haqida

so‘zlaydi. Aytmatov o‘z asarida muallimlik kasbining ahamiyatini, ta’lim va tarbiyaning inson shaxsini shakllantirishdagi rolini ohib beradi. Qissa, shuningdek, qishloq hayotining o‘ziga xosligini va yosh avlodning tarbiyasida muallimning o‘rnini ko‘rsatadi.

Aytmatov asarida muallim obrazini qahramon sifatida namoyon etadi. Muallim faqat bilim beruvchi emas, balki shogirdlarning ruhiyatini shakllantiruvchi shaxsdir. U tarbiyaning o‘ziga xos jarayoni orqali yoshlarni to‘g‘ri yo‘naltirishga intiladi. Muallimning mas‘uliyati, nafaqat bilimlarni yetkazish, balki axloqiy qadriyatlarni o‘rgatishda ham muhimdir.U o‘z shogirdlariga hayotdagi muhim qadriyatlarni, to‘g‘ri va noto‘g‘ri tushunchalarini o‘rgatadi.

Qissada axloqiy qadriyatlarning o‘rni katta. Har bir insonning hayotida to‘g‘ri yo‘lni tanlash masalasini yoritadi. Aytmatov, qishloqdagi yoshlarni to‘g‘ri tarbiyalash uchun, muallimning shaxsiy axloqiy fazilatlari qanday bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. Muallim, o‘zining shogirdlariga haqiqiy insoniy qadriyatlarni, mas‘uliyatni va hayotiy tajribani o‘rgatadi. Aytmatov, to‘g‘ri va noto‘g‘ri, yaxshi va yomon tushunchalarini o‘rgatish orqali shogirdlarining shaxsiyati va axloqiy qarashlarini shakllantiradi. Muallim o‘z shogirdlariga mehr, hurmat va samimiyatni o‘rgatadi. Bu qadriyatlар, yoshlarning kelajakdagi hayotida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Asarda ijtimoiy mas‘uliyat ham alohida e’tibor qaratilgan mavzulardan biridir. Muallim, faqat shogirdlariga bilim berish bilan cheklanmay, balki qishloq jamiyatining taraqqiyoti uchun ham mas‘uliyat hissi bilan yashaydi. Ularning tarbiyasi, kelajak avlodning ijtimoiy hayotidagi o‘rnini belgilaydi. Aytmatov, muallimning tarbiyaviy faoliyati orqali qishloq hayotining yaxshilanishini, jamiyatda o‘zgarishlarni ta'minlashini ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Chingiz Aytmatovning "Birinchi muallim" qissasi, tarbiyaviy-axloqiy qarashlar jihatidan o‘ziga xos asardir. U muallimlik kasbining ahamiyatini, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy mas‘uliyatni o‘z ichiga oladi. Asar yosh avlodni tarbiyalashda muallimning roli har doim muhim bo‘lib qolishini ko‘rsatadi. Aytmatov, bu asar orqali ta’lim va tarbiyaning insoniyat uchun naqadar muhimligini ifodalaydi. Asar o‘z zamonining ijtimoiy muammolarini yoritib, insoniyatning ma’naviy jihatdan yuksalishi uchun ta’lim va tarbiyaning ahamiyatini ta’kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Akmal Saidov, akademik «Hurriyat» gazetasining 2023 yil 8 dekabr, 47-soni**
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi kutubxonasi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi.
2. Asil Rashidov. So‘nmas yulduzlar. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, T., 1981, 206-bet.

3. Chingiz Aytmatov. Oq kema. Birinchi muallim. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, T., 2017, 150-bet.
4. Aytmatov, Chingiz. Tanlangan asarlar: qissalar. – T.: Sharq, 2017. – 1-bet.
5. Mirzaaxmedova P.M. Klassika i sovremennoe v aspekte vzaimodeystviya. T., 2008. s. 33.
6. Aytmatov, Chingiz. Tanlangan asarlar: qissalar. - T.: Sharq, 2017. – 656 bet.
7. Aytmatov, Chingiz. Birinchi muallim: qissalar. - T.: Sharq, 2017. – 1-bet.